

## QORAMOLCHILIKDA NASILCHILIK ISHLARI VA SELEKTSION TADBIRLARNI AMALGA OSHIRISH

*Ilmiy rahbar: Tleubaeva Zaynab,  
Bakalavr: Duysenbaeva Shaxnoza  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar  
universiteti Nukus filiali*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada naslchilik ishining nazariy asoslari-qishloq xo`jalik hayvonlarini urchitish hisoblanadi-mavjud zotlarni yaxshilash va yangi zotlari, tiplari, krosslari va duragaylari o`rganilib chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Nasilchilik, urchitish, sut, go’sht, seleksiya, irsiylanish, nisliga o’tish, inbriding, autbriding.

Qoramolchilikda naslchilik ishining keng ma`nosi-bu hayvonlarni tanlash va saralashda ta`mirlovchi yosh mollarni yo`naltirilgan parvarishlash, hayvonlarning nasldorlik va mahsuldorlik sifatlarini yaxshilash, naslchilik zaxiralaridan oqilona foydalanishdagi tashkiliy-zootexnikaviy tadbirlar tizimidir. Rivojlangan davlatlar tajribasi. Qoramolchiligi rivojlangan mamlakatlarda (Isroil, AQSh, Gollandiya va hokazo) sutdor zotli sigirlardan o`rtacha 8000-12000 kg sut sog`ib olinmoqda. Ixtisoslashgan go`shtdor zotli mollarni jadal parvarishlashda kunlik tirik massa o`sishi 1200-1300 grammdan va so`yim chiqimi 60-65 foizga to`g`ri kelmoqda. etakchi mamlakatlar sutdor qoramolchiligidagi genetik taraqqiyot uchta omillar ta`sirida kechmoqda: zamonaviy seleksiya usullari, ratsional oziqlantirish, sog`ishning yangi texnologiyalari. Sutdor qoramolchilikning dunyoviy genofondi bo`yicha maslaxat va takliflar berish vazifasini Interbull (Interbull) tashkiloti (Shvetsiyaning Upsal shahrida joylashgan) bajarmoqda. Har bir rivojlangan G`arbiy mamlakatlarda milliy dasturlarni shakllantirishda ma`lumotlar to`plash va ularni ishlash, bajarilishini nazorat qilish va umuman ushbu davlatlar sut yo`nalishidagi qoramollar populyatsiyasi genofondini takomillashtirish bo`yicha markazlar tashkil qilingan. Buyukbritaniyada ADS, Germaniyada VDS, Isroilda ICBA, AQShda ADSA va Kanadada naslli mollarni hisobga olish assatsiyasi va korporatsiyalari faoliyat ko`rsatmoqda.

### Naslchilik ishida ilg`or usullarni qo`llash

Rivojlangan davlatlarda mollarning nasldorlik qiymatini baholashda BLUP (Best Linear Unbiased Prediction) uslubi qo`llanilmoqda. Har bir molning nasldorlik indeksi, ularning sut sog`imi, yog` va oqsil miqdorlari hamda sut yog`i va sut oqsili aniqlanadi. Har bir belgilar nasldorlik indeksi qiymati bilan birqalikda ularning umumiylashtirishindeki hisoblab chiqariladi. Dunyo tajribasida sutmoxsas qoramolchilikda sut

tarkibida oqsil miqdorini ko`tarish, sigirlarni xo`jalikda foydalanish muddatini uzaytirish, go`shtor qoramolchilikda ozuqalar konversiyasiga (samarali o`zlashtirish) katta e`tibor berilmoqda.

### Sof zotli urchitish

Bir zotga mansub bo`lgan hayvonlarni juftlashtirish. Olingan avlodlar sof zotli hisoblanadi. Asosiy vazifasi-zotning sifatini saqlash va takomillashtirishdir. Biologik xususiyati - mollarning irsiyatligini saqlash va uni kuchaytirishdir.

Sof zotli urchitishda mollarning monozigotaligi oshib boradi, tipi, mahsuldarligi va irsiy xususiyatlari bir-biriga xos bo`lgan mollar olinadi.

Sof zotli urchitish samaradorligi, selektsiya ishlarini yo`naltirishga, mollarning individual va zot xususiyatlarini yaxshilashga mashxur buqalar, tizim va oilalarning sifatiga, zotdagи genetik o`zgaruvchanlikga va sof zotli mollarning soniga bog`liq. Yosh mollarni parvarishlash, etuk mollarni oziqlantirish va saqlash sharoitlari muhum ahamiyatga ega.

Ushbu usul qora-ola, golshtin, shvits, gereford, sharole va hokazo klassik zotlarda keng qo`llaniladi.

Sof zotli urchitishda ikki xil juftlashtirish:-qarindoshlikda bo`lmagan (autbridging) va qarindoshlikda (inbridging)gi usul qo`llaniladi.

**Autbridging (getrogen) juftlashtirish:**-tizimlararo krossida, “qonni yangilash”, podani sog`lomlashtirish, xayotchanligini oshirishda qo`llaniladi.

**Inbridging-(gomogen)** juftlashtirish:-mashxur nasldor mollarning irsiyatlik xususiyatlarini avlodlarga o`ikazishda qo`llaniladi.

Inbridingdan tartibsiz foydalanish qator noxush holatlarga olib kelishi mumkin. Olingan avlodlarda mahsuldarlik, urchish-ko`payish va xayotchanligi pasayib konstitutsiyasi noziklashib boradi.

Uning zararli ta`siri-inbrid depressiyasi yoki inbrid degeneratsiyasi deb yuritiladi. Inbrid mollarda gomozigotalik kuchayib ketadi.

Qoramolchilik inbridingda 40 dan ortiq gomozigotalik qaytish: majruxlik va karotip anomaliysi (irsiy brak) uchraydi.

Sigirlarni urchish va buzoq berish xususiyatlariga salbiy ta`sir etuvchi 23 ta tug`ma nuqsonlar (defektlar) aniqlangan.

Keng miqyosli selektsiya usulida “yaxshilovchi” buqalardan keng foydalanishda. Ular naslida defektlarning yo`qligi nazoratga olinishi kerak. Aks xolda defektli buqalar nasl chorvachikka katta iqtisodiy zarar keltiradi. Keyingi vaqtida genetik anamaliya: BLAD (Boiline Leukocyte Adhesion Deficiency), leykotsitlar adgeziyasi va CVM (Complex Vertebral Malformatton) umirtqaning kompleks majruxligi. Ushbular retsessiv tipdagи irsiyatlikka ega, tseteroziylik holatida namoyon bo`ladi.

## Tizim va oilalar bo`yicha urchitish

Naslchilik zavodi va naslchilik xo`jaliklarida tizim va oilalar bo`yicha urchitish muxim ahamiyatga ega.

Qoramolchilikda tizimlar bo`yicha urchitish birinchi bor XVIII asrning ikkinchi yarmida Angliyada R.Bekvel tomonidan langorn molida, shuningdek aka-uka Kolinglar va T.Betsonlar tomonidan shotgorn zotida qo`llanilgan.

**Tizim**-geneologik, zavod va qarindoshlik guruhlariga bo`linadi.

**Gneologik tizim**-qiymatli buqadan bir necha avlodlargacha olingan mollar ular faqat kelib chiqishi bo`yicha bir buqaga urug`doshlikda bo`ladi. Geneologik tizim ko`pincha **formal** deb yuritiladi.

**Zavod tizimi**-bu mashxur avlod boshchisidan tarqalgan, barchasiga xarakterli bo`lgan mahsuldorlik sifati va boshqa xususiyatlari bilan unga mos keladigan, tanlash va saralash asosida takomillashib boradigan hamda ushbu xususiyatlarini avlodga o`tkazish qobiliyatiga ega bo`lgan mollar guruhidir. Ular mahsus naslchilik-selekteviya rejasi va tinimsiz takomillashtirish asosida shakllanadi.

**Qarindoshlik guruhi**-bu ayrim buqalar avlodni bo`lib, o`zining tipi va nasldorlik sifati bo`yicha ajralib turadi. Tegishli selekteviya ishlarini yo`naltirish bilan qarindoshlik guruhini zavod tizimiga ko`tarish mumkin.

Tizim ichida saralashda turli darajadagi inbridinglar qo`llaniladi. Eng maqbul o`rta me`yoriy (III-III, III-IV) inbriding hisoblanadi.

## Xulosa

Qoramolchilik qishloq xo`jaligining eng muhim sohasi xisoblanadi. Shu bois qoramolchilikda nasilchilik ishini to`g`ri tashkil etish natijasida xalq talabidagi arzon va yuqori sifatli go`sht-sut maxsulotlarini ko`paytirish va nasilli qoramollar bosh sonini oshirishga erishish mumkin.

## Foydalilanigan adabiyotlar

- 1.Nosirov U.N., Qoramolchilik “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2001.
- 2.To`raqulov Z.T., Abdirasulov A., Ibragimov Yu. ”Qoramolchilikdan amaliy mashg`ulotlar” Samarqand, 1996.
3. Amirov Sh.Q. Qoramolchilik fanidan mustaqil ishlarni bajarishga oid uslubiy ko`rsatma. Samarqand , 2011.